

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### №5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

# 2025





## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 87 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                             |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| “Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati<br>(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....         | 20 |
| <b>Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov</b>                                                                                                |    |
| Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....                                                                                     | 26 |
| <b>Musayeva Shoirazimovna</b>                                                                                                               |    |
| Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта<br>Вьетнама и Казахстана.....                                    | 30 |
| <b>Ж.Я.Нуриллаев</b>                                                                                                                        |    |
| Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank<br>tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili..... | 37 |
| <b>Xolmamatov Farhodjon Kubaevich</b>                                                                                                       |    |
| O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar .....                                                          | 44 |
| <b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li</b>                                                                                                   |    |
| O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot<br>hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish.....     | 48 |
| <b>Fayziyev Rabim Alikulovich</b>                                                                                                           |    |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish<br>amaliyoti .....                                   | 60 |
| <b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>                                                                                                           |    |
| Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning<br>o'ziga xos xususiyatlari.....                  | 67 |
| <b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>                                                                                                   |    |
| O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik<br>modellar (yillik) .....                            | 72 |
| <b>Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna</b>                                                                               |    |
| Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....                                         | 77 |
| <b>Mahamatova Maftuna</b>                                                                                                                   |    |
| Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....                                                              | 83 |
| <b>Koshanov Abdimurat Azat uli</b>                                                                                                          |    |



# XUFIYONA VA YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA



**Koshanov Abdimurat Azat uli**

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
koshanovabdimurat@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqola O'zbekistondagi xufiyona va yashirin iqtisodiyot (XYI)ning amaliy tahliliga bag'ishlangan. XYI davlat budjetiga soliq tushumlarining kamayishi, rasmiy mehnat bozorining buzilishi va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri bilan tavsiflanadi. Tadqiqotda XYI'ning ko'rinishlari, uning yuzaga kelish sabablari va iqtisodiy oqibatlarini tahlil etiladi. Statistik ma'lumotlar, xalqaro tajriba hamda intervyular asosida XYI hajmi va tarkibi baholanadi. Shuningdek, XYI darajasini kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** xufiyona iqtisodiyot, yashirin faoliyat, soliqdan qochish, mehnat bozori, O'zbekiston iqtisodiyoti, institutsional islohotlar.

**Abstract:** This article is dedicated to the practical analysis of the shadow and hidden economy (SHE) in Uzbekistan. The SHE is characterized by reduced tax revenues to the state budget, disruption of the official labor market, and negative effects on economic growth. The study analyzes the forms, root causes, and economic consequences of the SHE. Based on statistical data, international experience, and interviews, the volume and structure of the SHE are assessed. Practical recommendations are proposed to reduce its level.

**Key words:** shadow economy, hidden activity, tax evasion, labor market, Uzbekistan's economy, institutional reforms.

**Аннотация:** Данная статья посвящена практическому анализу теневой и скрытой экономики (ТСКЭ) в Узбекистане. ТСКЭ характеризуется снижением налоговых поступлений в государственный бюджет, нарушением функционирования официального рынка труда и негативным влиянием на экономический рост. В исследовании анализируются формы проявления ТСКЭ, причины её возникновения и экономические последствия. На основе статистических данных, международного опыта и интервью проводится оценка объёма и структуры ТСКЭ. Также предлагаются практические рекомендации по снижению её уровня.

**Ключевые слова:** теневая экономика, скрытая деятельность, уклонение от налогов, рынок труда, экономика Узбекистана, институциональные реформы.

## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti oxirgi yillarda tub islohotlar bosqichiga kirib borgan bo'lsa-da, iqtisodiy muomalalarning muayyan qismi hanuz rasmiy statistik ko'rsatkichlardan yashirin holda amalga oshmoqda. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida huquqiy, fiskal va institutsional mexanizmlarning yetarli darajada takomillashmaganligi, korxona va aholining soliqdan bo'yin tovlashga moyilligi, norasmiy bandlik va ruxsatsiz tadbirkorlik faoliyati kabi omillar xufiyona va yashirin iqtisodiyotning o'sib borishiga zamin yaratdi.

Yashirin iqtisodiyot nafaqat davlat budjeti tushumlariga zarar yetkazadi, balki makroiqtisodiy barqarorlik, mehnat bozori mexanizmlarining shaffofligi, ijtimoiy adolat va islohotlarning samaradorligiga ham bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, pandemiya davrida yuzaga kelgan iqtisodiy beqarorlik bu jarayonni yanada kuchaytirib, rasmiy mehnat bozori bilan norasmiy sektor o'rtasidagi tafovutlarni keskinlashtirdi.





Mazkur maqolada xufiyona va yashirin iqtisodiy faoliyatning O'zbekiston iqtisodiy tizimidagi hajmi, tuzilmasi hamda asosiy shakllari aniqlanadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda qo'llanilayotgan samarali choralar, raqamli texnologiyalarning roli, fiskal intizomni mustahkamlash va nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekistonda soliq bazasini kengaytirish, byudjet barqarorligini ta'minlash, ishchi kuchining rasmiy sektorga integratsiyasini kuchaytirish bilan bog'liq islohotlar yashirin iqtisodiyot muammosini chuqur tahlil qilishni va amaliy yechimlar ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shu bois, ushbu maqola mavjud muammolarni tizimli yoritish, tahlil qilish hamda ularga qarshi kurashishning institutsional va iqtisodiy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xufiyona va yashirin iqtisodiyot masalalari zamonaviy iqtisodiy tahlilning eng murakkab yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat statistik noaniqliklar, balki institutsional va huquqiy cheklolar bilan ham bog'liq. O'zbekiston misolida bu fenomenni o'rganish bo'yicha ilk yondashuvlar Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda BMTning UNDP kabi tashkilotlari tomonidan olib borilgan bo'lib, ular mamlakatdagi soliqqa tortilmaydigan faoliyatlar hajmini, norasmiy bandlik darajasini va davlat budjetiga ko'rilyotgan zararlarni aniqlashga uringan. Masalan, Schneider tomonidan ishlab chiqilgan "shadows economy" modeli xufiyona iqtisodiyotning miqdoriy bahosini aniqlash uchun keng qo'llaniladi. Bu model valyuta aylanishi, elektr energiyasi iste'moli va mehnat bozori noaniqliklari asosida yashirin faoliyat ko'lamini baholaydi.

O'zbekiston misolida Mahmudov va Tursunov yashirin iqtisodiyot hajmini aniqlashda monetar yondashuvdan foydalangan bo'lib, norasmiy pul aylanishi hajmini umumiy yalpi ichki mahsulotdagi (YalIM) ulush bilan taqqoslash orqali iqtisodiyotning yashirin qismini tahlil qilishgan. Ular mamlakatda ayrim sektorlar, xususan chakana savdo, xizmat ko'rsatish, qurilish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yashirin iqtisodiy faoliyat yuqori ekanini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Toshpo'latov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mehnat resurslarining norasmiy sektorda bandligi, ularning daromadlari statistik ko'rsatkichlarda aks etmasligi, bu esa davlatning budjet siyosatiga ta'sir ko'rsatishi asoslangan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ham O'zbekistonda soliqqa tortish tizimidagi murakkabliklar, ortiqcha byurokratiya va soliqdan bo'yin tovlash darajasining xufiyona iqtisodiyotga ta'sirini qayd etgan.

Yana bir muhim nuqta – bu zamonaviy raqamli texnologiyalar vositasida yashirin iqtisodiyot ko'lamini kamaytirish choralaridir. Xususan, elektron billing, raqamli to'lov tizimlari va keshsiz iqtisodiyotga o'tish kabi usullar orqali iqtisodiy faoliyatning rasmiylashtirilishi kuchaytirilmoqda. Karimov, Nurmatov va boshqa olimlar shu boradagi islohotlarning ilk natijalarini tahlil qilib, raqamli iqtisodiyotga o'tish orqali xufiyona faoliyat hajmi sezilarli darajada qisqarayotganini ko'rsatgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank hisobotlari hamda Jahon banki va OECD tomonidan e'lon qilingan ochiq manbalardan olindi. Yig'ilgan raqamli ma'lumotlar asosida yashirin iqtisodiyot hajmi va tuzilmasi monetar yondashuv, soliq-bozor tafovutlari hamda regressiya tahlili metodlari yordamida tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Xufiyona va yashirin iqtisodiyot (XYI) – bu rasmiy statistik hisobdan chetda qoladigan, davlat tomonidan tartibga olinmaydigan, biroq iqtisodiy muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi faoliyatlar majmuasidir. XYI tarkibiga norasmiy mehnat faoliyati, litsenziyasiz tadbirkorlik, noqonuniy savdo va xizmat ko'rsatish, soxta hujjatlar asosida amalga oshiriladigan operatsiyalar, soliq to'lovlaridan bo'yin tovlanish hamda bojxona qoidalarining buzilishi kabi holatlar kiradi. Ushbu jarayonlar odatda noqonuniy yoki yarim qonuniy shaklda bajariladi. Natijada, davlat budjeti daromadlarining kamayishiga, rasmiy bandlik ko'rsatkichlarining sun'iy past ko'rinishiga va iqtisodiy siyosat samaradorligining pasayishiga olib keladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar, ochiqlik siyosati va raqamlashtirish jarayonlari jadallashgan bo'lsa-da, XYI darajasi hanuz yuqori bo'lib qolmoqda. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda XYI YalIMning 25–30 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etmoqda. Bu esa iqtisodiyotning salmoqli qismi rasmiy statistikadan tashqarida qolayotganini anglatadi.

XYI nafaqat soliq siyosati va budjet barqarorligiga, balki ijtimoiy adolat, raqobat muhitining sog'lomligi va mehnat munosabatlarining barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, XYI'ni chuqur o'rganish va unga qarshi samarali choralar ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.



Mazkur tadqiqot O'zbekiston miqyosida xufiyona va yashirin iqtisodiyotning (XYI) real holatini aniqlash, uning ko'lamini baholash hamda unga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bunda miqdoriy va sifatli yondashuvlar uyg'unlikda qo'llanildi (1-rasm).



1-rasm. Xufiyona iqtisodiyotga metodologik yondashuvlar.

XYI hajmini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Transparency International kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari asosida statistik tahlil amalga oshirildi. Ushbu yondashuv orqali XYI'ning rasmiy iqtisodiyotga nisbatan foizli ulushi, soliq tushumlaridagi yo'qotishlar hamda bandlik sohasidagi norasmiylik darajasi aniqlab chiqildi.

Shu bilan birga, XYI darajasini boshqa davlatlar, xususan Markaziy Osiyo hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari bilan qiyoslab, O'zbekistonning mintaqaviy holati baholandi. Bu esa xalqaro tajribalar bilan mahalliy sharoitlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqotda sifatli intervyular asosida Toshkent, Samarqand va Andijon shaharlari kesimida XYI ishtirokchilari bo'lgan kichik tadbirkorlar va norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan ishchilar bilan chuqur suhbatlar o'tkazildi. Ushbu suhbatlar orqali ularning XYI'da ishlashga majbur bo'lish sabablari, duch kelayotgan muammolari va rasmiy iqtisodiyotga o'tishga bo'lgan munosabatlari o'rganildi. Natijada XYI'ning insoniy va ijtimoiy jihatlariga doir muhim xulosalar chiqarildi.

Bundan tashqari, XYI haqida aholining umumiy fikrini o'rganish maqsadida butun respublika bo'ylab 500 nafar fuqaroni qamrab olgan anonim onlayn va oflayn so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma savollari XYI faoliyatida ishtirok etish tajribasi, bu holatga sabab bo'lgan omillar, rasmiy sektorga o'tish istagi va davlat siyosatiga nisbatan qarashlarni o'z ichiga oldi.

Mazkur metodologik yondashuvlar orqali XYI'ning ko'lamini aniq belgilash va unga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan empirik asoslar yaratildi (1-jadval).

1-jadval. XYI ko'rinishlari va ularning misollari O'zbekiston sharoitida.

| XYI turi                 | Ko'rinishlari                                     | Misollar                       |
|--------------------------|---------------------------------------------------|--------------------------------|
| Norasmiy mehnat          | Mehnat shartnomasiz ishlash                       | Qurilish, bozorlarda ishchilar |
| Soliqdan qochish         | Qora naqd savdo, kassa chekisiz xizmat ko'rsatish | Savdo do'konlari, kafelar      |
| Ruxsatsiz tadbirkorlik   | Litsenziyasiz faoliyat                            | Uyda tikuvchilik, taksichilik  |
| Noqonuniy import/eksport | Chegara orqali noqonuniy tovar olib kirish        | Bojxona qoidalarini buzish     |

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda xufiyona va yashirin iqtisodiyot (XYI) hajmining yuqoriligini yaqqol ko'rsatdi. Jumladan, XYI mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25–30 foizini tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori darajalardan biri hisoblanadi. XYI'ning iqtisodiyotga salbiy ta'siri bir nechta yo'nalishda namoyon bo'ladi. Eng avvalo, davlat budjetiga tushadigan soliq tushumlarining kamayishiga sabab bo'ladi, bu yo'qotishlar yiliga qariyb 2,5 milliard AQSh dollariga baholanmoqda. Ikkinchidan, norasmiy faoliyat rasmiy biznes subyektlari uchun raqobat muhitini buzadi va teng sharoitda faoliyat yuritish imkoniyatini cheklaydi. Uchinchidan, norasmiy ishchilarning ijtimoiy himoyasi yo'qligi (pensiya ta'minoti, tibbiy sug'urta kabi) ularni iqtisodiy jihatdan zaif qatlamga aylantiradi.





XYI hududlar bo'yicha ham bir xilda taqsimlanmagan bo'lib, ayniqsa Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida bu ko'rsatkich yuqori darajada ekani aniqlangan. Norasmiy sektor qisqa muddatda ish bilan ta'minlash bo'yicha ijobiy ko'rsatkichlar berishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish va institutsional rivojlanishga jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot XYI'ga qarshi faqat jazolovchi choralar emas, balki rag'batlantiruvchi va tizimli islohotlar ham zarur ekanini ta'kidlaydi. Avvalo, soliq tizimini soddalashtirish va yengillashtirish, jumladan patent asosidagi faoliyat yuritish, yagona soliq stavkalarini joriy etish orqali norasmiy subyektlarni rasmiy sektorga jalb qilish mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish orqali tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish, soliq to'lovlarini onlayn yoki mobil ilovalar orqali amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Aholi orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish, rasmiy sektorga o'tishning afzalliklari haqida tushuntirish ishlari olib borish ham samarali vosita bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari uchun litsenziyalash va ruxsat berish tartiblarini liberallashtirish orqali ularni norasmiy faoliyatdan rasmiy iqtisodiyotga jalb etish imkoniyati kuchaytiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xufiyona va yashirin iqtisodiyot (XYI) O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror o'sishga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Ushbu sektorning keng tarqalishi davlat budjeti, mehnat bozorining samaradorligi va raqobatbardosh sharoitlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XYI darajasining yuqoriligi ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning hayot sharoitlariga salbiy ta'sir o'tkazadi.

2020–2022-yillarda pul o'tkazmalari hamda aholidan sotib olingan va ularga sotilgan chet el valyutasi hajmi XYI hajmiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida baholanmoqda.

XYI darajasini kamaytirish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- Davlat budjeti mustahkamlanadi – XYI bilan bog'liq soliq tushumlarining yo'qotilishi kamayadi, bu esa davlatning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Soliq tizimini isloh qilish va XYI faoliyatini rasmiylashtirish orqali budjetga to'lanadigan soliq mablag'lari sezilarli darajada ko'payishi mumkin.

- Mehnat bozorida rasmiy bandlik oshadi – XYI sektorida ishlovchi fuqarolarga rasmiy mehnat shartnomalari tuzish, ularni ijtimoiy himoya tizimiga kiritish va pensiya jamg'armalariga to'lovlar yo'lga qo'yilishi mumkin. Bu esa ishchilarning turmush sharoitlarini yaxshilashga, shu bilan birga, mehnat bozorining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

- Tadbirkorlik muhitida teng raqobat yaratiladi – Norasmiy sektor, ayniqsa kichik va o'rta bizneslar uchun nohaq ustunlikka ega bo'lib, rasmiy faoliyat yuritayotgan subyektlar uchun salbiy raqobat muhitini yuzaga keltiradi. XYI'ni qisqartirish orqali adolatli va sog'lom raqobat muhiti shakllanadi, bu esa iqtisodiy tizimning shaffofligiga xizmat qiladi.

Bunday natijalarga erishish uchun hukumat, mahalliy hokimiyatlar, biznes hamjamiyati va fuqarolik jamiyati o'rtasida uyg'un va maqsadli hamkorlik zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schneider F. The Shadow Economy and Work in the Shadow: What Do We (Not) Know? – Linz University, 2010.
2. Mahmudov M., Tursunov B. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmini baholash usullari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020.
3. Toshpo'latov U. Mehnat bozori va yashirin iqtisodiyot: O'zbekiston holati tahlili // Mehnat va ijtimoiy munosabatlar jurnali. – 2021.
4. Karimov I., Nurmatov A. Raqamli iqtisodiy islohotlar va ularning xufiyona iqtisodiyotga ta'siri // Raqamli transformatsiya jurnali. – 2023.
5. OECD. Tax Administration 2022: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies. – Paris, 2022.
6. World Bank. Shadow Economies in Transition Countries: Friends or Foes? – Washington D.C.: World Bank Group, 2010. – 90 p.
7. IMF. The Informal Economy in the Caucasus and Central Asia: Size and Implications. – Washington D.C.: IMF, 2011. – 74 p.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---